

IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA VATAN MANZARALARI**Ismoilova Aziza Tohir qizi**

Xorazm viloyati Urganch davlat universiteti
Filologiya fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada zamnaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakili Iqbol Mirzo she’rlarida Vatan manzaralari xususida fikr- mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar : *Vatan manzaralari, she’riyat, badiiy mahorat, estetik ta’sir.*

Har bir shoir o‘z she’rlarining mukammal, serjilo, ohanrabo va go‘zalligini ta’minalash uchun astoydil harakat qiladi. Bu yo‘lda izlanadi, badiiy kashfiyotlar, g‘oyaviy topilmalar qiladi. Bunday rejalar esa ijodkorning ijoddan ko‘zlagan maqsadini belgilab beradi. Ana shunday chuqur mushohadali fikrlarga qiziqtiruvchi, oddiy xalqona so‘zlardan ham badiiy topilmalar yaratuvchi ulkan adib O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzodir. Iqbol Mirzo zamnaviy o‘zbek adabiyotining eng yorqin, sermahsul va zabardast ijodkorlardan biri desak hech adashmagan bo‘lamiz. Uning har bir satrlari kishi ichki dunyosiga yo‘l ochadi, ko‘ngil sirlaridan kuylaydi. Shoир ijodi har bir yurakni to‘lqinlantirib, dil toridan taralgan misralari insonga o‘zgacha ruh, tarovat bag‘ishlaydi.

Iqbol Mirzo so‘zni qadrlovchi shoir ekanligini ko‘ngil mahzanidan to‘kilgan ijod mahsulidan anglab olish qiyin emas. Darhaqiqat, shoir ijodidagi umumbashariy mavzular davrlar o‘tsa hamki abadiyatga dahldor bo‘lib qolaveradi. Shoир ijodidagi Vatan manzaralari yoki milliy ohanglar yo qadimgi turkiy so‘z jozibalari shoir kundaligida doimo charaqlab turibdi. Ayniqsa, ijodkor she’riyatida Vatan manzaralari alohida e’tiborga molikdir. Shoир kundaligida yoritilgan umuminsoniy mavzular, ya’ni Vatan, millat tushunchalarining tirikligini isbotlaydigan va kelajagiga zamin hozirlayotgan noyob shoirlar qatorida ekanligini ko‘rsatadi.

Shoirning “Ey ona yurt” [“Vatan haqida qo‘sish” 25- bet] nomli she’rining dastlabki satrlarida lirik qahramon o‘z toleyi davomida ko‘p yo‘llar ko‘rganini, dunyo kezib, ellar ko‘rganini, lekin ona yurtning, shu aziz tuprog‘ining tarovatini ko‘rmaganini ta’kidlaydi. Keyingi satrlarida ham o‘zga yurtning topa olmaganini aytib o‘tadi. Keyingi satrlarda ham taqqoslashni davom qildirib, Parijda temir minora borligini, lekin laylaklarni, qaldirg‘ochlarni hech uchratmaganini ko‘rsatadi. Ayrim

insoniy tuyg‘ular hisob-kitobli, oqibatni hech qayerdan uchratmaganini afsus bilan ta’kidlab, yana noyob narsalar haqida quyidagi misralarni keltiradi:

Mehmon yo‘qdur, bunda mezbon yo‘q,
 Qoraqozon yo‘qdur, qumg‘on yo‘q,
 Sovchilar yo‘q, to‘ydasturxon yo‘q,
 Muhabbatni ko‘rmadim biroq,
 Ey ona yurt, ey aziz tuproq.

Eng oxirgi satrlarida lirik qahramon izlab- izlab aslida izlagani o‘z xalqi ekanligini faxr bilan tilga olib o‘tadi.

Iqbol Mirzoning “Qaram bo‘lmas o‘zbek” [“Agar jannat ko‘kda bo‘lsa” 10-bet] nomli she’rida ham o‘zbek xalqining hech qachon hech kimga qaram bo‘lmasligini baralla aytib o‘tadi. Ona va Vatan tushunchalarini yonma- yon tasvirlar ekan, bu tushunchalarni tanlay olmasliklarini uqtiradi. She’rning quyidagi misralari shoir tomonidan baralla yangraydi:

Yaratgandan boshqasiga qulmas o‘zbek
 Hech kimdan kam emas, kam bo‘lmas o‘zbek.
 Dong taratgan va o‘ziga qaratgan el,
 Hech qachon hech kimga qaram bo‘lmas o‘zbek.

Shoirning Vatan manzaralari aks ettirilgan har qanday she’ri xuddi ohanrabo singari kishini o‘ziga tortadi. Sababi yurt, millat tushunchalari bu she’rlar zamiriga chuqur singdirilgan.

Shoirning “Shu aziz Vatan barchamizniki” [“Vatan haqida qo‘shiq” 3- bet] nomli she’rida ham shunday tushunchalar manzarasini ko‘rishimiz mumkin. She’rning dastlabki satrlarida qancha dovondan, dasht-u biyobon, baland- pastliklardan o‘tib shu yorug‘ kunlarga yetib kelganlarimizni faxr ila tilga oladi. Ayniqsa, quyidagi satrlarni bugungi kunda har qancha g‘urur bilan tilga olsak arziydi:

O‘zbekiston- baxtimiz,
 G‘ururlansak haqlimiz.
 Eng buyuk boyligimiz
 Shu bunyodkor xalqimiz.

She’rda yangraydigan naqorot esa har bir yurt farzandining kundaligida yaraqlab tursa arziydi:

Shu chaman, shu maskan, shu gulshan
 Shu aziz Vatan barchamizniki!

Darhaqiqat, shoirning bu she'ri zamiriga qo'lni qo'lga berib, shijoatdan bel bog'lab Vatan uchun yashash g'oyasi singdirilgan. Vatanni onaga, millatni otaga qiyoslash orqali shoir Vatandan olgan ulushimizga o'z hissamizni qo'shishga chaqiradi.

Umuman olganda, shoir ijodidagi har qanday mavzu butun bashariyatga daxldor abadiy mavzulardir. Sababi, har qanday zamonda ham insonni o'yga toldiruvchi, yurt, millat, Vatan sadolarini yoritishda faqatgina qalbi butun shoirlargina xalqning ich-ichiga kirib borib ta'sir o'tkazishga qodir. Demak, Iqbol Mirzo ana shunday shoir sifatida hamisha barchamizning qalbimiz ardog'ida yashayveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. *Iqbol Mirzo*.
2. "Agar jannat ko 'kda bo 'lsa". "Sharq". T: 2010
2. *Iqbol Mirzo*. "Vatan haqida qo 'shiq". T: 2007
3. *Iqbol Mirzo*. "Vatan haqida qo 'shiq". T: 2007